

O`QITISH METODIKASI

Saodat Xudoyberdieva Saidkamolovna Toshkent shaxar. Shayxontoxur tumani.

102 –o`rta ta`lim maktabi. Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotation: Ushbu maqolada tarbiya fanining joriy qilinishi, fan sifatida tutgan o`rni va asosiy maqsadi, shuningdek o`qitish metodikasi haqida so`z yuritiladi

Kalit so`zlar: ruhiy, axloqiy, , aqliy, amaliy, jismoniy shakillanish, Pedagogik texnologiya, O`zaro fikr almashish

KIRISH

Davlatimiz rahbarining ta`lim borasida qilgan eng katta islohotlaridan biri umumta`lim maktablarida “Tarbiya” fani joriy etilishi bo`ldi desak adashmaymiz. Real hayotdagi muammolar va virtual olamning ta’siri doirasida inson shaxsi psixikasi katta sinovlar oldida turgan bir paytda hattoki ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda ham yoshlar orasida jiddiy muammolar uchrayapti. Virtual hayotdagi “olomonlashuv” holatlari real hayotga ham ko‘chmoqda.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaly pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o’tadi (Qozoqboy Yo‘ldoshev).

Tarbiya — ish, hunar, odob-axloq o‘rgatishga va umuman kishining g‘oyaviy va ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta’lim sistemasi. Shunday ta’lim sistemasi natijasida singdirilgan xislat, fazilat, odob-axloq (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”).

Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning tarbiya borasidagi qiymati o‘lchanmas fikrini isbot o‘rnida keltirish maqsadga muvofiqidir: “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”. Ma’lumki, ta’lim va tarbiyaning o‘rtasida ochiq-oydin farq bor. “Ta’lim”—arabcha so‘z, o‘zagi ilm, tarbiyaning bir qismidir. Tarbiya esa ta’limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z-o‘zidan ta’limga nisbatan keng qamrovlidir. Jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish zaruriyat, va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o‘z ichiga oladi. Tarbiyaning makoni qalb bo‘lib, inson qalbiga ta’sir etuvchi manbalardan foydalangan holda tarbiyaviy ishlar yo‘lga qo‘yilmog‘i lozim.

ASOSIY QISM

Tarbiya keng ma`noda yoshlarning, insonlarning ob`ektiv va sub`ektiv ta`sirlar asosida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakillanish jarayonidir. Tarbiyalanuvchi va tarbiyalovchi munosabatlari nuqtai-nazaridan esa tarbiya — ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Biron bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejallashtiriladi va tartibga solinadi: a) talabaning qaysidir xislatini shakillantirish yoki yo‘qotish maqsadida rejallashtiriladi; b) shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalarni izlab topiladi; v) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarning qaysisini va qaerda ishlashni rejallashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta`lim-tarbiya tizimi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash uchun uni bilim

olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-harakatni sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas`uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma`naviy, insoniy sifatlarning shakillanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo`lgan munosabat muhim ro`l o`ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-birlariga bo`lgan munosabatlarini ko`rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So'ng sekin-asta qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma`naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqilllikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovation jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zları tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublar, innovation texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. «Dumaloq stol» metodi: Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'lab aylantiriladi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib qo'ygach, varaqni boshqa talabaga uzatadi. Keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab talabaning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni

faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin. Berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarga misollar: – tarbiyaning tarkibiy qismlari qaysilar?; – aqliy tarbiyaning hozirgi davr talabi nimada?; – axloqiy tarbiya vazifalari qaysilar?; – ekologik tarbiyaning mohiyati nimada?; – mehnat va iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalarini izohlang; – estetik tarbiyaning vazifalarini ayting; – jismoniy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati; – huquqiy tarbiyaning muhim belgilari qaysilar? Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo'yilgan savol, bu – javobning yarmisini o'zida jo etgan savoldir. «Ruchka stol o'rtasida» metodi. Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, o'quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir etuvchi, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillarini birma-bir ko'rsatib o'tilsin). Har bir talaba bitta javob variantini bir varaq qog'ozga yozib, uni qo'shniisiga beradi, o'z ruchkasini esa stolning o'rtasiga surib qo'yadi.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o'q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, yaxshi-yomon, halol-harom, egri-to'g'ri, hurmat-izzat, muhabbat va oqibatni bilib, his qilib o'sgan o'quvchilar jamiyat rivoji uchun albatta o'z hissasini qo'shishiga ishonamiz. Tengsiz bilim, mahorat va xotiraga ega bo'lsa-da, ammo insoniy tuyg'ulardan xoli bo'lgan har qanday xodim, rahbar, va umuman olganda, jamiyatdagi har qanday shaxs, eng

kerakli vaqtida va joyda sizga pand berishdan qaytmaydi va qo‘rqmaydi. Tarbiya juda ko‘p sohada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, tarbiyaga e’tiborsiz mamlakat qachon bo‘lsada tanazzulga va inqirozga yuz tutadi. Bolani milliylik, qadriyatlar, xalq pedagogikasiga suyanib, chin insoniy tuyg‘ular asosida tarbiyalash va jismoniy tarbiyaga e’tibor berish borasidagi taklif va mulohazalar haqligini doimo hayotning o‘zi isbotlagan.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.T.: “Sharq” 1997-yil.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv uslubiy qo‘llanma/ Innovatsion ta’lim texnologiyasi seriyasi. – T.: Iqtisodiyot. 2012 –B.145
3. Xalq so‘zi jurnali. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi «Hukumat soati» 01.12.2020
4. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2016.56B.